

CHET TILLARINI O'RGANISHDA LINGVOKULTUROLOGIYA FANINING O'RNI

Shoyimova Feruza Isoqovna

Jizzax davlat pedagogika instituti Ishtimoiy-gumanitar fanlarda chet tillar kafedra o'qtuvchisi

Ismatullayev Otabek

Pedagogika psixologiya fakulteti Defektologiya yo'nalishi 403-guruh talabasi

THE ROLE OF LINGUCULTUROLOGY IN THE STUDY OF FOREIGN LANGUAGES

Shoyimova Feruza Isoqovna

Teacher of the Department of Foreign Languages in Social Sciences and Humanities, Jizzakh State
Pedagogical Institute

Ismatullayev Otabek

Student of the 403rd group of Defectology, Faculty of Pedagogical Psychology

Hozirgi kunda siyosiy va ijtimoiy,iqtisodiy,madaniy va xalqaro aloqalar shiddat bilan kengayib borayotir.Shu bois mamlakatimiz fuqarolariga ham dunyoning istalgan mamlakatiga sayohat qilish yo'llari ochiq.Ular turli davlatlarda kasbiy malakalarini oshirib,chetellik hamkasblari,hamkorlaribilan fikr almashib,siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'ya oladilar. Ta'lim va sport,fanva texnika, san'at,adabiyot va madaniyat yo'nalishlaridagi yutuqlarimizni jahonga yoyadilar.Shuningdek,dunyo bo'ylab turli doiradagi tashriflarni,sayohatlarni uyushtirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Aksariyat tilshunos olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatmoqdaki,biror bir xalqning,millatning tiini mukammal o'rganish uchun uning madaniyatini ham chuqur tadbiq etish zarurdir. Masalan,har bir tilda shunday bir lisoniy birliklar,ular orqali anglashiladigan tushunchalar mavjudki,ularning boshqa tildagiekvivalentini topib,tarjima qilish ba'zida mumkin bo'lsa-da,aynan o'sha ma'noni,tushunchani ifodalab,izohlash juda ham mushkul.

Shu o'rinda yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"asarida ushbu so'zlarini eslash o'rinlidir: "...tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat,mehr-shavqat,qard-qimmatdegan,bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyilmasin,bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo".

Yuqoridagi misollardan ma'lumki, har bir tilde tarjimasi mavjud bo'lmagan so'zlar emas,aynan tushunchalar mavjudki,biror bir chet tilini o'rganayotgan shaxs faqatgina o'sha tilda so'zlashadigan millarning madaniyatini,turmushini,hayot tarzini,ma'naviy olamini,dunyoqarashi-yu urf-adatlarini mukammal o'rgangan taqdirdagina bu kabi milliy-madaniy tushunchalarning mohiyatini to'laligicha anglab yetishga erishishi mumkin.

Shu va shunga o'xshash til ehtiyojlarida kelib chiqqan holda jahon tilshunosligi XX asrning oxirlariga kelib,tilshunoslik fanining yangi yo'nalishlari paydo bo'la boshladi. Jumladan, jamiyatning tilga ta'siri va o'zaro aloqasini o'rganadigan – sitsiolingvistika,inson psixologiyasining tilde aks etishi muammolari bilan shug'ullanadigan – psixolingvistika, atrof-olam tushunchalarining inson ongiga qay tarzda qabul qilinishi va uning tildagi aksini o'rganadigan kognitiv lingvistika – pragmalingvistika,nihojat, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi asosida tashkil topgan,madaniyatning tildagi aksini o'rganadigan – lingvokulturologiya kabi yangi fanlar vujudga keldi.

Hozirgi kunda ushbu fanlar o'zining rivojlanish bosqichida bo'lib, aynan lingvokulturologik tadqiqotlarga nemis tilshunos olimi va faylasufi V.fon Gumboldt va uning amerikalik izdoshlari E.Sepir va B.Uorfnkabi tilshunos olimlarning til va tafakkur to'g'risidagi qarashlari, fikrlari asos bo'lib xizmat qilmoqda. V.Gumboldtning fikrlari XIX-XX asrlarda "neogumboldtianstva" nomi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina olimlar ilmiy izlanishlari natijasida taraqqiy etdi.

Lingvokulturologiya fani o'zbek tilshunosligida yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til harakteri va millat xarakterining o'zaro aloqadorligini tadqiq qilishda milliy til va milliy madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda tildagi lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatini tekshirishni asosiy vazifalardan biri sifatida qo'yadi. Rus tilshunos olimi V.Vorobyov ham V.Gumboldt g'yalariga asoslanib, Lingvokulturologiya fanining nazariy metodologik asosini ishlab chiqdi. Bu fanni "Madaniyat va tilning amaldagi qo'llanish jarayonida o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan" sifatida baholadi. Hamda bu aloqalar "til birliklari va madaniy birgalikning umumiy bog'liqligi yig'indisi tarkibida aks erishini tizimli metodlar yordamida angelaydigan fan" ekanligini ta'kidlab, til birliklarini o'rganishda zamonaviy ilg'or va me'yoriy tartiblar, umuminsoniy qadriyatlar kabi madaniy qoliplarga tayanuvchi ilmiy qoidalar majmuasiga asoslanib o'rganish kerak, deb hisoblaydi.

V.Gumboldt dunyo xalqlari va tillari haqida bizga ko'plab bebaho ma'lumotlar yozib qoldirgan. Uning ta'kidlashicha, "milliy o'ziga xos xususiyatlarini millatning tilisiz qancha o'rganmaylik urinishlarimiz zoya ketgan bo'lar edi. Chunki milliy harakter faqatgina tilda muhrlangandir". Biz esa yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib shuni aytishimiz mumkinki, biror tilni mukammal o'rganishga kirishar ekanmiz, uning madaniyatini o'rganmay turib bunga erishish mushkul. Biz tilni madaniyatni aks ettirib turuvchi ko'zguga qiyoslashimiz mumkin. Bu ko'zguda insonni qamrab turgan olam, shu tilda so'zlashadigan xalaqning xarakter, madaniyati, turmush tarzi, qadriyatlari majmuasi va dunyoqarashi aks etib turadi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi konsepsiya V.Gumboldtga tegishli bo'lib, unda madaniyatning milliy harakteri tilda dunyoni o'ziga xos ravishda

Professor Nizomiddin Mahmudov til haqida yozar ekan: "Odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydiki, bular hamish ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi. Demakki, til bemisl boy sir-u sinoatga, ruh-ruhiyatga, ko'rk-u komollikka limmo-lim boylikdir. Albatta tilning sanab o'tilgan vazifalari uning asosida voqe bo'ldi" deya tilning xususiyatlari haqida bildirgan fikrlari xuddi shuningdek, millat tilida ham millatning ruhi, xarakter, ma'naviyati to'la aks etgan bo'ladi deb aytishimizga asos bo'la oladi.

Bizning nazarimizda madaniyat tushunchasining o'zi bu, olam qonuniyatlarini insoniyatning ma'naviy-axloqiy tomondan anglashdur. Madaniyat negizida inson o'z -o'zini shaxs sifatida anglab yetadi. Shuning uchun ham shaxsning turmush tarzi va hayotiy falsafasi asosida shakllangan qadriyatlari ma'lum bir madaniy qoliblar tarzda uning tili orqali ongida o'z-o'zidan muhrlanadi. Shu tarzda ular qanday ma'no va mazmun kasb etishga qarab ma'lum bir xalq madaniyatning mulkiga aylanadilar.

Bu madaniy qoliplar o'z navbatida milliy til birliklarida aks etadi va bir inson o'zining kundalik turmush tarzda ilmiy-ijodiy qarashlari, dindan kelib chiqib bularni o'z ongiga qabul qiladi. Mana shu tarzda tildagi madaniy qoliplari avlodlardan avlodlarga turli til birliklari tarkibida meros bo'lib o'tib malum bir jamiyat, etnos, xalq, millat tafakuri dunyoqarashi shakllanib boradi.

Turli tillardagi til birliklari tarkibidagi madaniy qoliplar xilma-xil bo'lgani uchun xam boshqa-boshqa tillarda so'zlashadigan kishilar ongi-yu tafakkuri, olamni chunish tarzi, dunyoqarashi bir-biridan farq qiladi. Lingvokulturologiya fani aynan anashu madaniyatlarni farqlarini til birliklari tarkibida o'rganadi. Ularda milliy madaniy xususiyatlarni izoxlash uchun kerak bo'ladigan til birliklarida so'zlarni etimologik analiz qiladi

Boshqa xalqlarning ijtimoiy-pisixologik tizimlari haqida bilimga ega bo'lish va turli xil kommunikatsiya usullaridan foydalana olish insoning fikirlash qobiliyatini charxlab, uning dunyoqarashini kengaytradi. Atrof muhita sodir bo'layotgan voqea va xodisalarga obyektiv nigh

bilan qarashga o'rgatadi. Lingvistik bilimlarning milliy-madaniy tushunchalar bilan uyg'unlikdagi o'rganilishi har tomonlama bilimlarni oshirish, insida o'ziga o'zgalar nazari bilan qarab baxo berish va o'zinikiga o'xshamagan boshqa bir madaniyatlar, qadriyatlar va qarashlar borligi haqida tassavurga ega bo'lish ko'nikmalarini shakllantradi. Buni anglab yetish jarayoni inson ongida muayyan tushunchalar to'plami yuzaga keladi va har bir mustaqil fikriga ega shaxs bu tushunchalardan eng to'g'risini tanlab, o'z xayotiy faoliyatiga tadbiq qiladi. Ta'limda chet tillarini o'qitishga bunday yondashuv boshqa madaniyat vakillari bilan til topishish va ular bilan madaniy aloqalarda samarali natijalarga erishishga ham olib keladi.

Shunday ekan, xorijiy tillarni o'qitishda lingvokulturologiya faninig o'rni beqiyosdir. Bu faning chuqur o'rganib, uni ta'lim jarayonida chet tillarini o'qitish bilan birgalikda olib borishni jorey qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.